

REFERENT, NOMINAT VA DENOTATA TADQIQIGA DOIR

K. Yakupova-assistent o'qituvchi
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Nukus shahri

Ism va uning denotati o'rtasidagi bog'liqlik lingvistik, madaniy va tarixiy omillarni o'z ichiga olgan murakkab o'zaro ta'sir natijasidir. Ingliz va o'zbek misollarini tahlil qilish orqali ismlarning darhol referentlaridan tashqariga chiqadigan chuqur ma'nolarga ega ekanligi aniq bo'ladi. Ular identifikatsiyalarni qamrab oladi, madaniy qadriyatlarni etkazadi va tarixiy kontekstlarni aks ettiradi. Ushbu bog'liqlikni tushunish tilning inson tajribasini shakllantirishdagi rolini boyitadi. Ismlar va ularning denotatlarini o'rganish orqali til va madaniyatning murakkab o'zaro ta'sirini tushunamiz, ismlarning bizning ijtimoiy va shaxsiy hayotimizdagi chuqur ahamiyatini ochib beramiz. Ismlardan kelib chiqadigan ontologik shakllar shaxslarning madaniy kontekstlarda ma'nnaviy va psixologik tuzilmalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Nom va uning ma'nosiga oid qarashlarni rivojlantirishda A.F. Losevning lingvofalsafiy nazariyasi alohida o'rin egallaydi [Losev, 1990; 2008]. Uning mohiyati odam uchun nomning ahamiyatini uning mohiyati, ongi va o'z-o'zini anglashning ajralmas qismi sifatida tasdiqlashda yotadi, bu esa, Losevning fikricha, bizning hayotimizning haqiqati tomonidan tasdiqlanadi. Nom borliqning markaziylahzasi, butun mavjudlikning asosi va sirli tarkibiy qismidir ("So'z va nomda - mavjud bo'lishning barcha mumkin bo'lgan qatlamlari bilan uchrashuv" [1;30]). Nomni eslatish, nomni atash harakati odamning hayotidagi eng muhim, hissiy jihatdan eng yuqori lahzalarni belgilaydi. "Muhabbatda biz barchamiz sevimli nomni takrorlaymiz va sevgilimizni uning nomi orqali chaqiramiz. Nafratda biz nafratlangan nom orqali uni haqorat qilamiz va yerga uramiz. Shuningdek, ismlarga murojaat qilish vositasida ibodat qilamiz va la'natlaymiz, nomni aytish orqali. Noming hayotida chegaralar yo'q, uning qudrati uchun o'lchov yo'q. Nom va so'zlar dunyoni yaratadi va u haqda barcaha ma'lumotni o'zida aks ettiradi" [1;166]. Losevning tasvirlashicha nom va so'z bir butunlikni tashkil etadi; nom - ma'nosi jihatidan eng "quyuq" va yuqori kuchlanishga ega so'z. Bilim har qanday shaklda so'zga murojaat qilmasdan, uning mohiyatiga kirishmasdan tasavvur qilinmaydi. "So'zda va ayniqsa nomda - asrlar davomida to'planib kelingan madaniy boyliklarimiz aks etadi, ularsiz hech qanday mantiq, fenomenologiya yoki ontologiya hamda fikr psixologiyasi haqida gap-so`z bo`lishi mumkin emas. So'z va nomda – olam lisoniy manzarasi hamda borliqning, mavjudlikning barcha mumkin bo'lgan qatlamlari o`zaro uchrashadi" [1;33].

Zamonaviy ilm - fanda maxsus onomastik tadqiqotlarning boshlanishiga tamal toshi odatda XIX asrda ingliz olimi J. S. Mill tomonidan qo'yilgan deb hisoblanadi. Uning fikrlari mantiq-falsafiy asosga tayanib (bunda asosan, T. Hobbes g'oyalariga asoslanilgan) qurilgan, shunga qaramay, u tomonidan ishlab chiqilgan asosiy qoidalar keyinchalik tillar nazariyasiga, ayniqsa, referensiya nazariyasiga, nominatsiya nazariyasiga ta'sir ko'rsatgan, ayniqsa, atoqli va turdosh otlar haqidagi qarashlarga ta'sir ko'rsatdi. Millning fikricha, otlar o'zlarini atayotgan narsalarning haqiqiy nomlari bo`lib, bu bizning ular haqidagi tasavvurlarimizning nomlanishi emas. "Barcha ismlar xoh xayoliy, xoh haqqoniy bo`lsin nimanidir atab keladi, shu bilan bir qatorda har alohida narsaning ham o'z nomi bo`lmasligi mumkin. Ayrimlari uchun esa ularni farqlovchi maxsus, alohida ismlar kerak, masalan, har bir shaxs, yoki makon o`z alohida nomiga ega bo`lishi kerak va h.k." [2;22]. John Millga tegishli bo'lgan fikrga ko'ra, ismlar hech qanday ma'no bildirmasdan, biror narsani belgilash uchun tanlangan "belgi"lar kabi tushuniladi. Ular biror narsa yoki shaxsni belgilash vazifasini bajaradi, ammo hech qanday mazmunni bayon qilmaydi. Bu munosabat tilshunoslik tomonidan o'zlashtirilgan va yuz yildan ortiq vaqt mobaynida hukmron bo'lib kelgan.

John Mill ismlar o`zaro ajratilishidan hosil bo`lgan turdosh va atoqli otlar orasida aniq farq tilning tabiatini bilan bog'liq ekanini ta'kidlagan. Shu bilan birga, u 'konnotatsiya' atamasini iste'molga kiritgan. Nomlarni o'zlarini atayotgan predmetga qarama-qarshi qo'yib, ularni konnotativ otlar va konnotativ bo'limgan otlarga ajratgan, bunda ikkinchi kategoriya ayoqli otlarni kiritadi hamda ular faqat predmetlarni ko'rsatish vazifasini bajaradi ammo ularni tavsiflamaydi, deb tushungan [2;27]. Shu bilan birga, N. D. Arutyunovning so'zlariga ko'ra, olim ma'no ot tomonidan

denotatsiya qilinganida emas, askincha, konnotatsiya qilinganida anglashinilishi va konnotativ ma'noga ega bo'limgan otlar lug'aviy ma'noga ega bo'lmasligini inobatga olib "ismlarning semantik dualizmini" tushunchasini iste'molga kiritgan [3;38], xulosa sifatida Mill lingvistikada har doim simmetrik ishlamaydigan mantiqiy prinsiplarga amal qilganini, shunga qaramay, onomastik nazariyalar XX asr davomida uning g'oyalari ta'sirida bo'lganini qayd etish lozim bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лосев А. Ф. Философия имени / А. Ф. Лосев. – Москва: Изд-во Московского университета, 1990. – С. 30.
2. Милль Дж. С. Система логики символической и индуктивной / Дж. С. Милль; пер. с англ. – Москва: Леман, 1914. – С. 22.
3. Арутюнова Н. Д. Лингвистические проблемы референции / Н. Д. Арутюнова //Новое зарубежной лингвистике. Вып. XIII. Логика и лингвистика. (Проблемы референции). – Москва: «Радуга», 1982. – С.5–38.
4. Жалгасов Н. М. СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СТРУКТУРНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОВЕРБИАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ О ЧЕЛОВЕКЕ //IX Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: память культуры и культура памяти". – 2020. – С. 360-361.
5. Сапаров С. П. ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКОВ //ХАБАРШЫСЫ. – 2022. – Т. 3. – С. 195.